

ZA'FARON O'SIMLIGINING TUZILISHI, TARIXI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Assistent; Xalmuratov Mingboy Amirovich
Biologiya va Qishloq-xo'jaligi mexnat o'qituvchisi
Sh.I.F.R. 03.00.05 :Batanika
Muallif; Abduvohidov Shohruh Bahriddin o'g'li
DTPI. Aniq va tabbiy fanlar fakulteti talabasi
+998904170447

Izoh; Sharqda “qizil oltin” deb ataluvchi Za’faronning marfalogik tuzilishi, tarqalish areali o'rganilib qisqacha tarixiga nazar solindi.

Bundan tashqari za'faron yetshtrishdagi asosiy qiyinchiliklar va Dunyo bo'yicha ekilish sabablari yoritilgan . Za’faronga bo'lgan talabning keskin ortib ketishi sabablari ko'rsatilgan va inson salomatligidagi ahamiyatidan kelib chiqib oziq-ovqat mahsulotlariga ko‘proq jalb qilish to'g'risida takliflar ko'zda tutilgan

Kalit so'zlar; Morfologiya, areal, Crocus-Sativus, Krit, Stigma, Katarakta, Antispazmatik, Melanxolya, Parfumeriya, ekstrakt.

Krish; Hozirgi kunda yer yuzida Dorivor o’simliklarga bo’lgan talab juda yuqori asosiy sabablari Kasalliklar ortib ketishi va tabbiy mahsulotlarning yetishmasligidir .Bundan tashqari hushboy hid va shirin tam beruvchi ziravorlar qadirlanadi.

Har bir Mamlakat o'zining iqtisodiyotiga foyda keltradigan yuqorida aytiladigan muammolarni oldini olish uchun dorivor o’simliklarni yetishtrish va ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratgan. Jahon iqtisodiyoti va Tibbiyotidagi muammolariga yechim bo'la oladigan Dorivor o'simliklardan biri ekma za'farondir.Crocus-sativus.L Sharqda –“**Qizil oltin**” deb ataluvchi za'faron Gulsafsar oilasiga mansub bo'lib yavvoyi holda uchramaydi, Hayotiy shakliga ko'ra ko'p yillik o'tsimon ,tugunak piyozli o'simlik . Barglari ; uzun lentasimon 5-15ta, uzunligi 20-60 sm, eni 2-mm ,tuksiz gullagan vaqtda juda yaxshi o'sadi. Guli ; Binafsha tusda ostki ko'rinishi oq rangda uzunligi 2-4 sm guli to'g'ri , shakli tuksimon 4-6 ta , changchilari qisqa gul ichida tugunchaga yaqin joylashgan fevral-iyul oralig'ida gullaydi, meva berish vaqti Aprel-avgust oylariga to'ri keladi. Tugunak piyoz og'irligi 6-7 gr, eni 1-2sm qish oylari uning tinim davri hisoblanadi.Za’faron yoqimli va o'tkir hid beruvchi efir moyiga ega, asosan gul tumshuqchalari olinadi, 100-minglab za’faron gulidan 1kg tumshuqcha olinadi.



Za'faron tarixiga nazar solsak vatani o'rta osiyo va janubiy-g'arbiy Gretsiya hisoblanadi. Qadimda **Krit** (Miloddan.avvalgi 1600-1700 yil) davlati saroy peshtoqlari va devorlarida za'faron terayotgan odam sur'ati tasvirlangan. Qadimgi Misr va Xitoy imperiyasi(4-5 asrda) tibbiyot kitoblarida za'faron haqida yozib qoldirgan , bu esa o'simlik juda qadimdan insonlar tomonidan foydalanib kelinganligining dalilidir. Buyuk allomalarimiz Abu Ali Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" kitobida safaron "Dorivor o'simliklar sulтони " deya ta'rif bergan .

Za'faron yetishtirishdagi asosiy qiyinchiliklar ;

- Gul ochilish vaqti ,muddati qisqaligi ;
- Ishchi kuchi talab qilinishi va olingan mahsulotni qo'l mehnati yordamida qayta ishlanishi ;

Za'faron o'simligi atigi 2-3 kun davomida guli ochilib turadi. Gul tumshuqchalari tongda quyosh chiqmasdan onalik gullaridan olinadi, shunda o'zidagi Dorivorlik xususiyatini saqlab qoladi. O'simlikni ekish va uni parvarish qilish biroz mashaqqat talab qiladi, ayniqsa gullaganda texnikalarni jalb qilish o'zini oqlamaydi. Shu sabab yig'im-terim qo'l mehnati yordamida amalga oshadi, 100-minglab gektardagi za'faron gullarini yig'ish uchun yetarli Ishchi kuchiga ega bo'lishi lozim. Bu esa aholini mavsumiy ish bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lish ,shu hudud ekologiyasi, qishloq-xo'jaligi , aholi turmush tarzi o'zgarishiga olib keladi. **Crocus-Sativus** deb ataladigan za'faron o'simligidan tayorlanadigan ziravorlar asosan gulning quritilgan **stigmalaridan** olinadi va dunyo oshxonalarida xushbo'y hidli va o'zgacha tamga egaligi bilan qadrlanadi .



Za'faron o'simligini yetshtrish va uni qayta ishlash hozirgi kunda dunyo iqtisodiyotiga foyda keltrmoqda. **Eron , Hindiston , Ispaniya, Marokash , Turkiya , Afg'oniston** za'faron yetishtrishda yetakichi va asosiy daromad manbayi hisoblanadi. Bu davlatlar xomashyoni qayta ishlash va uni eksport qilishga qaratilgan .

Iqtisodiy o'sishda tarkibi va yuqori qiymati bilan Za'faronga teng keladigan ziravorlar yuq .

Eron-dunyoda yuqori sifatli za'faron yetishtrishda birinchilardan , qariyb 50-ming gektarga za'faron yetshtradi. Yer yuzidagi za'faronning 90% o'zida yetishtradi ammo 1/3 qismini eksportga qaratgan. Za'faron yetshtradigan Gonabod (iqlimi issiq va qurg'oqchil hudud bo'lib aholi o'rtasida ishsizlik juda yuqori iqtisodiyoti past bo'lgan ,za'faron plantatsiyalari yaratilgandan keyin viloyat iqtisodiyoti va aholi turmush tarzi sezilarli darajada o'sishga erishilgan) viloyati hisoblanadi.

Hindiston- ham za'faron yetishtrishda yirik sanoat bazisiga ega u yiliga 18-20 tonna ga yaqin za'faron (homashyo) mahsuloti yetishtradi , sifati yuqori bo'lganligi uchun ko'plab mamlakatlarga eksport qiladi.**Kashmir , Jammul , Himchal-pradesh** viloyatlari yetishtradi.

Ispaniya-da qimmatli xomashyo hisoblanib umumiy qishloq-xojaligi sanoatida asosiy mahsulotlardan biri hisoblanadi. Dunyo bo'yicha yiliga za'faronning 20%ni 1/5 qismini eksport qiladi, asosan safaron kukuni ,iplari ,ekstrakti tayyorlanadi

Dorivorlik xususiyatlari; za'faron uzoqt vaqt davomida yo'tal, shamollash, oshqozon kasalliklari, uyqusizlik, bachcha dondan qon ketishi, yurak, teri kasalliklarini davolashda Melanxolya va ruhiy tushkunlikda Antispazmatik, diuretic va yallig'lanishda, hotirani yaxshilashda, erkaklik quvvatini oshirishda, qizamiq, ko'k yo'talni davolashda foydalanib kelinadi. Karotinoidlar sog'lom xujayralarga ta'sir

ko'rsatmagan holda **Saraton** kasalligini keltirib chiqaruvchi o'simtga qarshi faol ta'sir ko'rsatadi. Qadimda Ko'z kataraktani davolashda hozir ham ko'zga tomiziladigan dori sifatida foydalanadi.

Tarkibi; A,C,B1,B2,B3,B9 vitaminlari makro-mikro elementlar (temir,magniy,kaly,sulfat,ruh,mis, marganes mis) efir moylari karotinlar ,saxaridlar, oqsil, uglevod,yog'lar uchraydi .



Xulosa; Za'faron o'simligi bilan tanishib chiqildi,foydali hususiyatlari o'rganildi va za'faron qadimgi o'simliklardan biri ekanligi o'z isbotini topdi. Yer yuzida ko'pgina davlatlar za'faronni ekish va uni eksport qilishda yaxshi natijalarga erishgani hayratga soldi. Tarkibiga qarab aholini qiynayotgan ko'pgina kasaliklarni davolash va oldini olsa bo'ladi. Va za'faron noqulay issiq sharoitda o'sishi Respublikamiz hududlarida ekish orqali har tomonlama foyda olishimiz mumkin ..

Tavsiyalar; Respublikamiz iqlimi issiq iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligi orqada qolayotgan viloyatlarimizda za'faron yetishtrish va uni qayta ishlash sanoat Bazalari yaratish orqali Ham Aholini ish bilan ta'minlash hamda dori tayyorlashda tabiiy mahsulotga bo'lgan talabni qisman qondirish imkoni tug'iladi va o'sha Xudud iqtisodiy barqarorligi ortadi.

Ekologiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi .Misol uchun; Eronda 400 ming aholini barqaror va foydali ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan bu mayda raqamlar emas

Aholining oziq ovqatga bo'loan talab yildan yilga ortib borayotgan bir paytda ularni tabiiy yo'l orqali sog'lom muhitga yaratishning tabiiy Yuli doimiy (kunlik) istemol qilinadigan ovqat ratsionida sut mahsulotlari (saryog', pishloq, kefr, sut) va

taomiga qo'shiladigan ziravorlarga za'faron kabi Dorivor o'simliklarni ko'proq yo'naltiradigan bo'lsak



Aholi o'rtasida sog'lom muhit ,aqliy o'sish davomiyligi bir meuorda saqlab qolinardi. Agar Surxondaryo viloyatida za'faron ekish orqali zahira plantatsiya qilish chorlari Davlatimiz tomonidan qo'llab quvvatlanadigan bo'lsa ko'plab aholi ish bilan ta'minlanadi .

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Negbi , M . Physiological research an the saffron cracus (cracus-sativus) in F. Tomorrow and I L . Marra 1990. 183-207 pp
2. BMC research Notes I Full/Text/ saffron is amonomorphic species as revealed by RAPD ISSR and meratellite analysis
3. I.B .Mahmudiv //crocus L turkum turlarning o'zbekiston hududida intraduksiya bioekalogik Tashkent 2017
4. GIAHS Globally Important Agricultural Heritage Systems
5. POTENSIAL ROLE OF PHYTOCHIMICEL EXTRAKT FROM SAFFRON IN Devolopment .z MacBook 2022
- 6 Abdullaev F.I(2002)"Cancer Chemopreventive and Tumoricidal Properties of Saffron"(Crocus sativus L.) Experimental Biology and Medicine 227(1),pp.20-5